

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Xilola Muxutdinova, Siroj Pulatov, Otabek Rixsiboyev
TDIU SMMT-77 guruh talabalari

Har bir alohida davlatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum bir muvozanatlilikni ta'minlash hisobiga rivojlansagina, o'sha mamlakatdagi aholi va xo'jalik sub'ektlari moddiy farovonlikka erishishi mumkin. Bizga ma'lumki, mamlakatdagi ijobiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri - bu davlat moliyasining ajralmas qismi bo'lgan davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismini muvozanatligini ta'minlash yoxud xarajatlar qismi daromadlarga nisbatan keskin oshib ketishining oldini olishdir.

Davlat byudjetidan bir qator jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan xarajatlarni o'z vaqtida va doimo amalga oshirishini ta'minlash uchun soliqlar bir maromda va to'lig'ligicha byudjet daromadiga tushib turishini ta'minlash lozim. Biroq, shu narsani alohida ta'kidlash joizki, bozor munosabatlari endigina rivoj topayotgan bir sharoitda, soliqlarning byudjet daromadiga doimo va bir tartibda kelib turishini ta'minlash eng og'ir iqtisodiy tadbirlar qatoriga kiradi. Bunday bo'lishning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabab va muammolari bor, albatta.

Iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatning ixtiyorida zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni to'plashning lozimligi, mavjud byudjet taqchilligini kamaytirish, byudjetdan qilinadigan xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini yurg'izish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi nomutanosiblikni oldini olish, soliqlarni to'lashdan bosh tortish hollarini kamaytirishning ob'ektiv zarurligi bilan belgilanadi.

Buning uchun soliqlarni undirishning zarurligi, soliqlarning o'z vaqtida va belgilangan summalarda undirilishi, soliq summalarining o'z vaqtida byudjet ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayon sifatida qaramoq zarur.

Har bir alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning ixtiyoriy yoki erkin shaklda bo'lmasdan, aksincha, aniq belgilangan shaklda bo'lishi, soliqni to'lash muddati, to'lash uslubi va to'lov summasi soliq to'lovchi va boshqalar uchun tushunarli va aniq bo'lishi kerakligi, har qanday soliqning eng avvalo, soliq to'lovchiga to'lash qulay bo'lgan muddatda va uslubda undirilishi lozimligi soliqlarning byudjetga muddatida va uslubda undirilishi lozimligi soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Soliq tizimiga asos sifatida olingan mumtoz tamoyillarga ham xuddi shunday vazifalar qo'yilgan.

Bundan asosiy maqsad davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni moliyaviy mablag'larsiz bajara olmaydi. Moliyaviy mablag'lar esa davlat xazinasiga asosan soliqlar ko'rinishidagi mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Shuningdek, soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning yana bir ahamiyati byudjetdan qilinadigan ijtimoiy-madaniy tadbirlar, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, iqtisodiy tarmoqlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, hokimiyat, boshqaruv va sud organlari hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash, malakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish uchun mablag'lar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq yig'iluvchanligining tadqiq etish asosida soliq yig'iluvchanligi darajasini quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiqdir: soliq yig'iluvchanligi darajasi – bu moliya yilida hisoblangan soliqlar evaziga kelib tushgan soliq tushumlarining ushbu davrda hisoblangan soliq majburiyatlariga nisbati orqali ifodalanadigan ko'rsatkichdir.

Bunda soliq yig'iluvchanligi darajasini hisoblashda soliqlar bo'yicha qo'llanilgan jarima va hisoblangan penyalar hisobga olinmagan. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkichni sof soliq yig'iluvchanligi sifatida baholash mumkin. Agar soliq yig'iluvchanligini hisoblashda soliqlar bo'yicha qo'llanilgan jarima va hisoblangan penyalar inobatga olinsa, ushbu ko'rsatkichni yalpi soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichi sifatida ta'riflash maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida majburiy to'lovlar hatto, 2012 yildan boshlab, davlat bojlarining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida undirilishini nazorat qilish soliq idoralariga yuklatilganligi inobatga olinadigan bo'lsa, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha tushgan jami tushumlar, ular bo'yicha hisoblangan jami majburiyatlar (shu jumladan, penya va moliyaviy jarimalar) nisbatini topish orqali soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha jamlanma yig'iluvchanlik darajasini aniqlash mumkin.

Soliq tushumlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga asoslangan soliq potentsialini baholash usullaridan foydalangan holda, hududning soliq potentsialini aniqlash hisobiga mazkur hududda soliq tushumlari reja ko'rsatkichlarining belgilanishi, bu esa, respublikamiz hududlarida soliq yig'iluvchanligining oshishiga xizmat qiladi.

Davlat soliq xizmati idoralari hisoblangan va undirilgan soliq tushumlari bo'yicha to'laqonli ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lsa, soliq potentsialini aniqlash ancha osonlashadi. Zero, joriy davrdagi soliq potentsiali deganda, soliq to'lovchilarning hudud bo'yicha soliq majburiyatlari yig'indisini aks ettiruvchi miqdor tushuniladi, ya'ni nazariy jihatdan hudud soliq potentsiali summasi byudjetga hisoblangan soliq to'lovlari summasiga teng bo'lishi kerak.

Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi bo'lgan soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirib borishda, eng avvalo, mamlakat soliq siyosatini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Uning asosiy shartlaridan biri

bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va alohida tarmoqlaridagi sub'ektlarning rivojlanishini, yalpi ishlab chiqarishning o'sishini va soliq yukining iqtisodiyotga hamda soliq to'lovchilarga ta'siri doirasini mukammal tahlil qilish kabilar xizmat qiladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga yetgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga yetganida tadbirkorlik tashabbusi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni "qonuniy" sektoridan "yashirin" sektoriga o'tadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda tahlil qilingan yillar davomida respublika byudjetining daromadlar qismiga tegishli bo'lgan bashorat ko'rsatkichlari asosiy soliq turlari bo'yicha bajarilayotgan bo'lsa-da, lekin bu narsa jada katta mehnat va mashaqqatlar evaziga erishyotganligini inobatga olish lozim. Bu esa o'z navbatida soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash mexanizmida tegishli nuqson va kamchiliklarning borligidan dalolat beradi.

Biz ushbu kamchilik va nuqsonlarni umumlashtirib quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implarni byudjetga yillarning choraklari bo'yicha undirilish rejalarining haqiqiy hisob-kitoblarga yetarli darajada asoslanmasdan tuzilayotganligida, rejalarni tuzishda yillarning ayrim choraklari bo'yicha reja ko'rsatkichlarining pasaytirib, va aksincha ayrim choraklarida teskari ya'ni ko'paytirib tuzilayotganligida;

- byudjetga undirilishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'implarning barcha hollarda ham soliq to'lovchilarga tushunarli emasligi, soliqlar va yig'implarni byudjetga undirish jarayonida soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliq yukining ular o'rtasida amalda bir tekis taqsimlanganligi, soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turishga harakat qilayotgan soliq to'lovchilar uchun soliq yukining og'irligi hamda soliqlar to'lashdan turli yo'llar va vositalarni qo'llash evaziga bo'yin tortayotganlar uchun soliq yukini sezilarli emasligi;

- ko'pchilik hollarda hech bir ob'ektiv sabablarni va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayanchli iqtisodiy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarini oldingi o'ringa qo'yilishi hamda soliq undiruvchilarda o'z faoliyati natijalaridan moddiy manfaatdor bo'lishlikni yetarli darajada shakllanmaganligi;

- soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turmasdan moliya-byudjet to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining nisbatan yuqori darajada ekanligi;

- soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda undirilishini ta'minlovchi mexanizmning yetarli darajada takomillashmaganligi, amalda ushbu mexanizmning barcha holatlarda ham yetarli darajada oddiy va sodda emasligi.

O'ylaymizki, yaqin yillarda davlat byudjetiga soliqlarni o'z vaqtida tushishini ta'minlash va ularning yig'iluvchanligini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida mazkur kamchiliklarga barham beriladi.

Davlat byudjetining daromadlarini takomillashtirish va bu orqali soliq tushumlarini ko'paytirish avvalombor, soliq tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamiz soliq tizimi mavjud soliq tizimini amaliy tadbiq qilish va davlat iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga mos ravishda olib borayotgan ishlar natijalarini hisobga olgan holda, doimo takomillashib bormoqda. Hozirgi paytda soliq solinadigan bazalar tuzilmalari va toifalarini mavjud bo'lgan inflyatsiya darajasi bilan moslab ko'rib chiqish juda ham dolzarb hisoblanadi. Bu tadbir huquqiy va jismoniy shaxslar real daromadlarining oshishiga va jamg'armalarning ko'payishiga xizmat qiladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar ega o'z navbatida bir tomondan boshqa turdagi soliqlar uchun soliq solinadigan ob'ekt bo'ladilar, ikkinchi tomonidan esa, aholi va korxonalarining ko'paygan bo'sh mablag'lari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo'shimcha omil bo'ladi va xalq xo'jaligida investitsiyalarning o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida soliq solinadigan bazalarning o'sishiga va oxir-oqibat davlat byudjetiga soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi.

Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida soliqlarni qayta taqsimlashni hisobga olish va aniqlash mexanizmining yo'qligi shunga olib keladiki, mahalliy hukumat organlarining soliq salohiyatini baholashda uning hududida yig'ilgan soliqlar haqidagi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Soliq salohiyatini baholashda bunday yondashish unchalik ham to'g'ri emas. Salohiyat tushunchasining o'zi u yoki bu hajmdagi ichki xususiyatlarni tashqi sharoitlarning o'zgarishida namoyon bo'lishini baholashdir. Mahalliy hukumat organlarining soliq salohiyati – bu mahalliy byudjetga soliq bazasi hajmi bilan va soliqlarni hisoblash, to'lash tartibi bilan aniqlash mumkin bo'lgan soliq tushumlarinig hajmidir. Yig'ilgan soliq ko'rsatkichlaridan faqat hududlar o'rtasida soliqlarni qayta taqsimlash hajmiga mo'ljallangan soliq salohiyatini baholash uchun foydalanish mumkin: uning asosi bo'lib tarmoq xususiyatiga bog'liq ravishda bir xil turdagi ob'ektlarni soliqqa tortishdagi farqlar, daromad (foyda) olish joyi va uni soliqqa tortishning to'g'ri kelmasligi hisoblanadi. Bunday holatda bir mahalliy hukumat organlari soliq salohiyatining qiyosiy tahlilini amalga oshirishimiz mumkin. Hududlar o'rtasida soliqlarning eksportini va taqsimlanishini hisobga olmasdan, uni bilmasdan turib, ushbu mahalliy byudjetga zarur bo'lgan mablag' hajmini aniqlash mumkin emas.

Hozirgi davrda quyi darajadagi byudjetlarning yuqori darajadagi byudjetlar va idoralarga qat'iy ma'muriy bo'ysinishi amaliyoti o'rniga turli darajadagi

byudjetlarning o'zaro munosabatlari qaror topdi, byudjetlarning o'zlari esa o'zgacha moliyaviy mazmun kasb etdi. Mahalliy byudjetlar xarajati oshib borayotgan hozirgi kunda hukumat tomonidan ularni daromadlarini mustahkamlash bilan bog'liq birlashtirilgan daromadlar soni ko'paytirib borildi, tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalar miqdori oshirib borildi. Bu o'z navbatida, mahalliy byudjetlar daromadlarini oshishiga, demak ularning hududlarida yaratilayotgan milliy daromadlarini taqsimlashdagi o'rnini oshishiga olib keladi. Shu sababli byudjetlararo munosabatlarda soliq bazasini bo'lish va uni byudjetlarga tegishli barqaror birlashtirish, turli byudjetlar majburiyatlari va xarajatlarini aniq belgilab qo'yish, byudjetlararo munosabatlarning yangi mexanizmlarini yaratish masalalarini hal etish kun tartibiga qo'yilgan. Albatta byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar byudjet resurslarining paydo bo'lishi, shakllanishi va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadi va o'zaro munosabatlarning yagona tizimida borishi kerak. Moliyaviy resurslar taqsimlanishi va ular tegishli kanallar bo'yicha respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirish uchun yuborilishi, so'ngra moliyaviy resurslarning jismoniy va yuridik shaxslarga yo'naltirilishi tartibga solinishi kerak.

O'zbekiston uchun hozirgi kunda nafaqat soliq tizimi bilan byudjet tizimi qurilishining o'zaro munosabatlari, balki turli darajadagi hukumat organlarida soliq undirish bo'yicha huquqiy vakolatlarining taqsimlanishi ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Iqtisodiyotda davlat rolining kamayishi, o'tish davrida iqtisodiy ziddiyatlarining yuzaga kelishi mamlakatda siyosiy erkinliklarining yuzaga kelishi, mahalliy hukumat organlariga yuklatilgan vazifalarni mavjud moliyaviy resurslar hisobidan moliyalashtirish uchun tabiiy ravishda nomarkazlashuvni taqozo etadi. Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga beriladigan mablag'lar hajmi hududlarning siyosiy maqomlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Mahalliy byudjetlarga o'z funksiyalarini bajarish uchun soliqlarni birlashtirib qo'yilar ekan, avvalo bu soliqlar qanday soliqlar bo'lishi va bu holatning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlab olish kerak. Mahalliy soliqlar eng avvalo resurslarni tarmoqlararo taqsimlanishiga ta'sir qilmasligi, soliq yukini boshqa ma'muriy birliklarga yuklamasligi kerak. Mahalliy soliqlar yetarlicha egiluvchan va davlat xarajatlari bilan proporsional ravishda o'zgarishi kerak, ya'ni boshqarish oson soliqlar bo'lishi kerak. Bulardan tashqari markaziy hukumat mahalliy hokimiyat organlari ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi, mahalliy hukumat organlarini qo'llab-quvvatlash manosida ularni boshqarib tura olishi kerak. Bunday sharoitlarning bo'lmasligi byudjetlar nazoratini qiyinlashtiradi va korrupsiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Byudjet resurslarini taqsimlashda jahon amaliyotida quyidagi mezonlar haqida ko'rsatkichlar asos qilib olinadi :

- aholi jon boshiga ko'ra byudjet resurslarining taqsimlanishi;

- iqtisodiy potentsialdan foydalansh darajasiga qarab byudjet resurslarinig taqsimlanishi;

- mahaliy byudjetlar mustaqilligi.

Mahalliy byudjetlar mustaqilligini ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Operativ mustaqillik - mahalliy byudjetlar loyahasini ishlab chiqish, loyihadagi tegishli tadbirlarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish, hamda byudjet ijrosi to'g'risida hisobotning ommaviy tarzda tayyorlanishi ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi jarayonida namoyon bo'ladi. Ikkinchi ma'noda bu - iqtisodiy mustaqillik. Iqtisodiy mustaqillik haqida mahalliy byudjetlar bo'g'ini daromad bazasini o'sishi yoki umuman byudjet parametrlarining oldingi yillarga nisbatan o'sayotganligi orqaligina ijobiy xulosa qilib bo'lmaydi. Bunga boshqa ko'rsatkichlar ham zarur.

Hozirda byudjet daromadlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlasi tartibi ham takomillashtirilishiga muhtojdir. Respublika byudjetidan qilinadigan transfertlar hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirmayapti, balki hududlarning rivojlanish darajasi bo'yicha bir birida ko'p farqlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi tartibning nomukammalligi quyidagi kamchiliklarning oldini olishga imkoniyat bermaydi:

- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yig'iladigan moliyaviy mablag'lar, xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmaydi, bu narsa mahalliy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi;

- byudjet xarajatlarining yetmaydigan qismini respublika byudjeti tomonidan to'ldirish mahalliy hokimiyatlarining markaziy organlariga nisbatan bo'lgan qaramlikni kuchaytiradi;

- mahalliy hokimiyat organlari mablag'ga bo'lgan ob'ektiv va asoslangan ehtiyojlarilan kelib chiqib, daromadlarning qo'shimcha manbalarini izlashga bo'lgan mustaqillikni ma'lum darajada yo'qotadilar.

Bunday sharoitlarda transfertlar siyosatida chuqur o'zgarishlar qilish kerak. Bu siyosat mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini, javoblarligini oshirishga hamda o'z daromadlarini oshirishdagi, ijtimoiy iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishdagi harakatlarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammolarini hal qilish maqsadida moliya bozorlaridan jalb va mobilizasiya qilingan, tabaqalashtirilgan o'z mablag'lari ko'rinishidagi daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llanilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun:

- mintaqalardagi rejimlarini muvozanatlashni va byudjet ehtiyojlarini ta'minlashni muvofiqlashtirish uchun, mahalliy hokimiyat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etish huquqini qonunan rasmiylashtirish;

- mintaqaning ijtimoiy va investitsiya manfaatlarini hisobga olgan holda imtiyozli soliq solishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini kafolatlaydigan soliq tadbirlari bo'yicha huquqiy me'yoriy hujjatlarni shakllantirish kabi vazifalarni bajarish zarur.

Fikrimizcha, soliqlarni va ularni taqsimlashni takomillashtirishga qaratilgan bu takliflar kelajakda byudjet daromadlarini ko'paytirishga, soliq tizimini taraqqiy qildirishiga hamda oxir-oqibatda aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. A.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent: "Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент, "Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
11. Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари." (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари." (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktoria press.—21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбаини оширишда инновацион менежментни ривожлантириш//Центральноазиатский журнал образования и инноваций. — 2023. — Т. 2. — №. 4. — С. 5-8.

16. У Ёроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор. 2020
17. У Ёроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023. Т4, №5, 1550-1564
18. Ёроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари ва истикболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил, 27.
19. Ёроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ёроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.«." (2017).
21. Ёроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар.“." (2020).
22. Ёроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимиغا интеграциялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар."." Молия-кредит тизимининг иқтисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
24. Ёроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзалликлари.“. Молия” журнали. 2014.
25. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.: «Академия. 2005.
26. Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
27. G‘aybullayev, U O‘roqov. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. - T.: Vaktriapress, 2016